



Lexical-semantic features of phraseological units expressing the concept of "FEAR" (On the example of S. Ayni's works "Death of the Usurer" and "Old School")

Jamshed MIRZOYEV¹, Emin Adil GARIBLI²

Samarqand davlat chet tillar instituti
Azerbaijan State University of Economics

ARTICLE INFO

Article history:

Received December 2024

Received in revised form

15 December 2024

Accepted 25 January 2025

Available online

15 February 2025

Keywords:

phraseological units,
translation,
comparative analysis,
idioms,
syntactic analysis,
semantic analysis,
linguistic analysis,
cross-cultural equivalence.

ABSTRACT

The research focuses on phraseological units expressing the concept "fear" used in S. Ayniy's works "Death of the Usurer" and "Old School." The study examines the linguocultural characteristics of these units and their translations from Tajik into Uzbek and English, illustrated with specific examples. The article investigates the semantic features of the selected phraseological units using methods such as descriptive, comparative, and component analysis.

2181-3663/© 2024 in Science LLC.

DOI: <https://doi.org/10.47689/2181-3701-vol3-iss1-pp63-71>

This is an open-access article under the Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) license (<https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/deed.ru>)

“QO‘RQUV” konseptini ifodalovchi frazeologik birliklarning leksik-semantik xususiyatlari (S. Ayniy “Sudxo‘rning o‘limi” va “Eski maktab” asarlari misolida)

ANNOTATSIYA

Kalit so‘zlar:

frazeologik birliklar,
tarjima,
qiyosiy tahlil,
idiomalar,
sintaktik tahlil,
semantik tahlil,

Tadqiqotning obyekti sifatida S. Ayniy qalamiga mansub “Sudxo‘rning o‘limi” va “Eski maktab” asarlarida foydalanilgan “Qo‘rquv” ma‘nosini bildiruvchi frazeologik birliklar tanlangan. Tadqiqotda ushbu birliklarning lingvomadaniy xususiyatlari, tojik tilidan o‘zbek va ingliz tillariga tarjimalari aniq misollar orqali yoritilgan. Maqolada tanlangan frazeologik birliklarning

¹ Assistent-o‘qituvchi, “Tarjima nazariyasi va amaliyoti” kafedrası, Samarqand davlat chet tillar instituti.

² PhD, Professor, Department of International Economics, Azerbaijan State University of Economics.

lingvistik tahlil,
madaniyatlararo
ekvivalentlik.

semantik xususiyatlari tavsifiy, qiyosiy, komponent tahlil kabi
usullardan foydalangan holda o'rganilgan.

Лексико-семантические особенности фразеологизмов, выражающих концепт «СТРАХ» (на примере произведений С. Айни «Смерть ростовщика» и «Старая школа»)

АННОТАЦИЯ

Ключевые слова:

фразеологические
единицы,
перевод,
сравнительный анализ,
идиомы,
синтаксический анализ,
семантический анализ,
лингвистический анализ,
межкультурная
эквивалентность.

Объектом исследования являются фразеологические единицы со значением «Страх», использованные в произведениях С. Айни «Смерть ростовщика» и «Старая школа». В исследовании на конкретных примерах освещены лингвокультурологические особенности этих единиц, их переводы с таджикского на узбекский и английский язык. В статье изучены семантические особенности выбранных фразеологических единиц с применением таких методов, как описательный, сравнительный и компонентный анализ.

Bugungi kunda konseptni lingvistik ifodalar orqali o'rganish zamonaviy kognitiv tilshunoslikning dolzarb masalalaridan biri hisoblanadi. Bu esa o'z navbatida konseptning mazmun mohiyatini ochib berishga yordam beradi. Ushbu ishimizning maqsadi "qo'rquv" konseptining leksik-semantik xususiyatlarini ochib berish, shuningdek, tahlil qilinayotgan tushunchaning tojik, o'zbek va ingliz tillaridagi frazeologik vositalar orqali ifodalanishidagi umumbashariy va milliy xususiyatlarini aniqlashdan iborat.

Tilshunoslikda til va madaniyat o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik masalalarini o'rganishga bo'lgan intilish tobora kuchaymoqda. Frazeologiya uzoq vaqtdan beri o'rganib kelinayotgan bo'lsa-da, unga bo'lgan qiziqish hamon so'nmagan. Buning ustiga, frazeologik birliklarning milliy-madaniy o'ziga xosligini o'rganishga qaratilgan tadqiqotlar faollashib bormoqda.

Til madaniyatning muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Unda milliy tafakkurning o'ziga xos xususiyatlari aks etadi. Xususan, frazeologik birliklar xalqning boy hayotiy tajribasini, jamiyatdagi eng muhim voqea-hodisalarni kuzatish va umumlashtirish mahoratini namoyon etadi. Ularda xalqning rivojlanish bosqichlaridagi tafakkur tarzi ham o'z ifodasini topgan. Biz tahlil qilayotgan birliklarning obrazli asosi madaniy va milliy xususiyatlarni mujassamlashtirishga xizmat qiladi.

Ko'rib chiqilayotgan konsept ingliz tilida "fear" so'zi bilan, tojik tilida "tapc", o'zbek tilida esa, "qo'rquv" so'zi bilan ifodalanadi.

Oxford Advanced Learner's Dictionary lug'atida "fear" so'ziga quyidagicha ta'rif berilgan: 1. An unpleasant feeling caused by the possibility of danger, pain, a threat etc (xavf-xatar, og'riq, tahdid va h.k. ehtimoli tufayli yuzaga kelgan yoqimsiz his) 2. This feeling caused by something specific (bu alohida bir narsa tufayli paydo bo'lgan hissiyot).

Sinonimlar va izohli lug'atlar tahlili shuni ko'rsatdiki, tahlil qilinayotgan konseptning yadroviy zonasida quyidagi leksemalar mavjud:

dread / qo'rquv, qo'rqinch; **scare** / to'satdan qo'rqish, vahima; **apprehension** / qo'rqish, xavotir; **consternation** / dahshat, vahima; **dismay** / vahima, qo'rqish; **fright** /

cho'chish; **terror** / dahshatli qo'rquv; **horror** / dahshatli, vahimali; **alarm** / dovdirash, sarosima.

Tojik tilida "qo'rquv" konsepti "tars" so'zi bilan ifodalanadi. Tojik tilining izohli lug'atiga ko'ra, u quyidagilarni anglatadi: xavf, bim, vahm.

O'zbek tili izohli lug'atida esa, "qo'rquv" so'zi quyidagicha ta'riflangan: qo'rqish his-tuyg'usi, shunday his-tuyg'uli holat, ruhiy holat.

Illyustrativ material sifatida quyidagi misollarni keltiramiz: **to have butterflies in one's stomach** – asabiy bo'lmoq, qo'rquvdan, hayajondan qaltiraydi; **like a scalded cat** – juda tez, go'yo birdan qo'rqib ketgan yoki hayratda qolgandek; **like a cat in a strange garret** – kimdir notanish yoki g'alati muhitda o'zini juda noqulay, xavotirli yoki yo'lini yuqotib qo'ygandek; **like a cat on hot bricks** – bezovta yoki qo'rquv holatda, bir joyda turolmaydi; **to get cold feet** – ба маънои пойҳоро хунук гирифтан-дар лаҳзаҳои охир тарсидан, асабонӣ шудан; qattiq qo'rqmoq, asabiy bo'lmoq; **to be with one's tail between one's legs** – тарсидан, тарсончакона рафтор кардан; qo'rqqqlarcha raftor qilmoq; **to shake in one's shoes** – qo'rquvdan titrardi; **to be scared to death** – o'lgudek qo'rqq; **chicken-hearted** – quyon yurak; **in fear and trembling** – o'zini yuqotib qo'ydi; **to have cold feet** – rangi oqarib ketdi va h.k.

"**Fear**" konsepti nafaqat iboralarda balki maqol va matallar tarkibida ham faol qo'llaniladi. Masalan, **he who goes into the woods should never be afraid of wolves** – Az gurg metarsed – ба ҷангал наравед; bo'ridan qo'rqsang o'rmonga borma; волков бояться-в лес не ходить; **he that fears every bush must never go a birding** – чумчук тарсӣ, арзан накор; chumchuqdan qo'rqqan tariq ekmas, chigirtkadan qo'rqqan – ekin; **A good anvil does not fear the hammer** – сандони хуб аз чаккуш наметарсад ва ё ҳақиқати додгоҳ натарсидан аст; qiyinchiliklardan qo'rqqmaydigan shaxs; **Fear something as the devil fears holy water** – аз чизе монанди шайтон метарсанд; Qo'rqqqa ip ilon bo'lib ko'rinadi; **he that fears you present will hate you absent** – Ҳарки дар ҳузурат аз ту битарсад, дар ғайбат туро нафрат кунад; qo'rqqdan shafqat kutma; **Distracted between hope and fear** – Az umed ba noumedī guzashan; noumid shayton; it is better to eat bread in peace than cake in fear – Нон ва об аз пироги бо душворӣ ба дастоварда беҳтар аст; The scalded dog fears cold water – Худро дар шир сӯхта, ба об мезананд.

Tadqiqotimiz shuni ko'rsatdiki, ingliz tilida "qo'rquv" tushunchasi turli xil sinonimlarga ega bo'lib, ular fikrni ifodalashning turli holatlarida qo'llanilishi mumkin. Masalan: **fear, dread, fright, alarm, dismay, consternation, panic, terror, horror, trepidation, startle**. Shuni ham ta'kidlab o'tish joizki, ushbu tushunchalar tojik va o'zbek tillarida ham uchraydi. Jumladan, **qo'rquv, tars, vahima, dahshat, vahm, xavf, xatar, bim, haros, haybat, seskanib ketmoq, jon holatida, havotirlanib qaramoq, qo'rqa-pisa qaramoq, vahmi kelmoq, o'zini yuqotib quymoq, jon holatida baqirmoq, shaytonlab qolmoq, cho'chib tushmoq, qo'rquv ichida, dovdirab qolmoq, qo'rquvu daxshatdan dodlab yubormoq, tutqanoq tutgan odamdek, karaxt bo'lib qolmoq** kabilar.

Tadqiqotimiz obyekt sifatida S. Ayniy qalamiga mansub "**Sudxo'rning o'limi**" va "**Eski maktab**" asarlarida uchraydigan "qo'rquv" konseptini ifodalovchi quyidagi frazeologik birliklarni uchta tilda, tojik, o'zbek va ingliz tillarida leksik-semantik hamda lingvomadaniy jihatdan tahlilga tortish ahamiyatga molik.

1. Қориисмат **монанди хорпушти шаттахӯрда, ки сару пояшро ба дарун мекашад**, кулӯлаю лӯнда шуд (Марги судхӯр, с. 90).

Qori yiqilgan hamon cho'ntagini buti orasiga tiqib hadiksiragan **tipratiganday qo'lini va boshini oyoq ichiga tortib**, yum-yumaloq bo'lib yotib oldi (Sudxo'rning o'limi, b.117).

Like a hedgehog curling up, Qori Ismat turned into a ball, protecting his hands and legs lightly against his stomach, not letting his pockets be seen (The Death of the Usurer, p.117).

Yuqoridagi misolda Qori Ismatning qo'rquvi va o'zini himoya qilish harakati jonli obrazlar orqali ifodalangan. Asliyatdagi **“Монанди хорпушти шаттахӯрда, ки сару пояшро ба дарун мекашад”** iborasi qo'rquvdan o'zini himoya qilish holatini tasvirlash uchun mahorat bilan ishlatilgan. Odatda **“Хорпушт”** (tipratikan) himoyalanish uchun o'zini yig'ib oladi, bu esa, qo'rqib qolgan odamning harakati bilan qiyoslangan. Bu obrazli ta'rif o'quvchining hayotiy tasavvurga yaqinlashtiradi va qahramonning holatini obrazli tasavvur qilish uchun xizmat qiladi. O'zbekcha tarjimasidagi **“Hadiksiragan tipratiganday qo'lini va boshini oyoq ichiga tortib, yum-yumaloq bo'lib”** iborasi tojik tilidagi frazeologik birlikning mazmunini to'liq saqlab qolgan. Bu yerda **“tipratikan”** obrazi orqali himoya va qo'rquvni ifodalash aniq va samara bilan tarjima qilingan. O'zbek tilidagi qo'shimcha **“cho'ntagini buti orasiga tiqib”** iborasi esa boylikni yashirish harakatini ta'kidlab, ma'no qatlamini yanada boyitadi. Ingliz tilida **“Like a hedgehog curling up”** iborasi so'zma-so'z tarjima qilingan bo'lib, himoya va qo'rquvni ifodalashga xizmat qiladi. Ingliz tilida **“hedgehog”** (tipratikan) obrazining ma'nosi to'g'ri ifodalangan, **“protecting his hands and legs lightly against his stomach”** va **“not letting his pockets be seen”** iboralari o'quvchi ko'z o'ngida qahramon holatini gavdalandiradi. Ingliz o'quvchilari uchun bu obrazni tushunish qiyin bo'lmaydi, lekin bu ta'rifda emosional ranglar pasaygan.

Tojik va o'zbek tillarida **“хорпушт”** (tipratikan) obrazi himoyalanish va qo'rquv bilan bog'liq holda ishlatiladi. Madaniy jihatdan bu obraz an'anaviy Sharq adabiyotida va kundalik hayotda keng tarqalgan, chunki bu hayvon Sharq xalqlarining madaniyati va tabiatiga yaqin. Ikkala til ham o'quvchiga hayvon harakatidan odamning hissiy va jismoniy holatlarini oson anglatib bera oladi.

Ingliz madaniyatida **“hedgehog”** (tipratikan) odatda **“curling up for protection”** iborasi bilan bog'lanadi, bu esa mazmunni tushunarli qiladi. Ammo ingliz tilida bunday obrazlar ko'proq bolalar adabiyotida yoki hayvonlar haqidagi hikoyalarda uchraydi. Bu tarjimada madaniy o'ziga xoslik saqlanib qolgan, ammo tilning jonli, tasviriy xususiyatlari kamaygan.

Uchala tilda ham **“tipratikan”** obrazi asosiy mazmunni, ya'ni himoya va qo'rquvni yaxshi yetkazib bergan. O'zbek tilidagi qo'shimchalar (**“cho'ntagini buti orasiga tiqib”**) boylikni yashirish va odamning harakatlarini yanada yorqinroq qilib tasvirlagan. Ingliz tilidagi tarjimada obraz o'quvchiga tushunarli bo'lsa-da, u tojik va o'zbek tillariga qaraganda kamroq hissiy va tasviriy ohangda ifodalangan.

2. Писарам он **дилу гурдаро надорад**, ки дар айёми зимистон, дар вақтҳое ки ҳамаи ёбонҳо холианд, ба чор санг роҳ рафта омада тавонад (Марги судхӯр, с. 64).

My son **is not as brave as him**, so in the wintertime when all the fields are empty, he couldn't make a distance of four sang (32 km) and come back (The Death of the Usurer, p.91).

Asliyat tilidagi **“дилу гурда надоштан”** iborasi **qo’rqoq, jasur bo’lmaslik** ma’nosini bildiradi. Bu yerda **“дил” (yurak)** va **“гурда” (buyrak, jasorat timsoli)** so’zlari obrazli ravishda ishlatilgan bo’lib, insonning botir yoki qo’rqoq ekanligini ifodalaydi. Agar ingliz tiliga so’zma-so’z tarjima qilinganda **“does not have heart and kindey”** shaklida chiqadi, lekin bu ingliz tilida tabiiy eshitilmaydi. Shu sababli ingliz tiliga **“o’g’lim u kabi jasur emas”** deb tarjima qilingan. Sharq madaniyatida **“dil” (yurak)** va **“gurda” (buyrak)** jasorat, metinlik va qo’rqmaslik ma’nolarni anglatuvchi tushunchalardir. Inglizlarda esa jasoratni ifodalash uchun **“brave” (jasur)** yoki **“has the guts” (botir)** kabi iboralar qo’llanadi. Ingliz tiliga ushbu frazeologik birlik ekvivalenti sifatida **“My son does not have the courage to...”** yoki **“My son is not brave enough to...”** shaklida tarjima qilish maqsadga muvofiq bo’lardi.

3. – Он инқилобе, ки то ҳол шунидед ва аз вай **монанди харе, ки аз шер тарсад**, дар биму ҳарос афтодед, кори аввалини болшевикон буд (Марги судхӯр, с. 167).

– Siz bu kungacha **qo’rqib yurgan** revolyutsionerlarning ishlari ishning boshlang’ichi edi, ... (Sudxo’rning o’limi, b.143).

– The revolution you heard about, **and fear like a donkey fears a lion**, was the first carried out by the Bolsheviks (The Death of the Usurer, p.194).

Tojik tilidagi **“Монанди харе, ки аз шер тарсад”** iborasi kuchli qo’rquv va xavotirni tasvirlaydi. Eshak va sher obrazlari o’rtasidagi kontrast bu qo’rquvning ekstremal darajasini ifodalaydi: eshak o’zining zaifligini anglab, yirtqich sherdan hayiqadi. Ushbu ibora **katta tahlikaga duch kelganda kuchsiz yoki ojiz odamning holatini** tasvirlash uchun ishlatilgan, hamda qahramonlarning inqilobga nisbatan haddan tashqari xavotir va qo’rquvini ko’rsatish uchun ishlatilgan.

O’zbek tilidagi **“Qo’rqib yurgan revolyutsionerlar”** iborasi tarjimada to’liq o’z aksini topmagan. Eshak va sher obrazlari o’rniga umumiy qo’rquv ifodalangan. Shu sababli, o’zbekcha matn ma’no jihatidan asliyatga yaqin bo’lsa-da, frazeologik ifodaning obrazlilik pasaygan.

Ingliz tilidagi tarjimada bu ibora **“fear like a donkey fears a lion”** deb berilgan, ya’ni so’zma-so’z tarjima qilingan. Ingliz tilida bunday frazeologik birlik mavjud emas, shuning uchun bu tarjima biroz g’ayritabiiy eshinishi mumkin. Ingliz tilida qo’rquvni ifodalovchi boshqa iboralar ishlatilishi mumkin, masalan: **“as scared as a rabbit in front of a wolf”** (bo’ridan qo’rqan quyon kabi); **“trembling like a leaf”** (bargdek titrab) kabilar.

Tojik va o’zbek xalqlari madaniyatida eshak mehnatkash, zaif va oddiy xalq timsoli, sher esa kuch-qudrat va xavf belgisi hisoblanadi. Bu o’xshatish inqilobni xalq orasida kuchli hayrat va qo’rquv uyg’otgan voqea sifatida tasvirlashga xizmat qiladi. Frazeologik birlik ko’proq mintaqaviy va madaniy nuqtai nazarni aks ettiradi. Ingliz madaniyatida ham eshak va sher obrazlari ma’lum darajada tanish. Inglizcha tarjimada bu obrazlar to’liq aks ettirilgan, lekin bu o’xshatish ingliz madaniy kontekstida biroz begona bo’lishi mumkin. Tarjima aniq va tushunarli bo’lsa ham, u madaniy jihatdan qisman begonalashtirilgan. Tojik tilidagi bu ibora ingliz tiliga to’g’ridan-to’g’ri o’tkazilgan va u tabiiy eshitilmasligi mumkin, shuning uchun **“as scared as a rabbit in front of a lion”** kabi o’xshash frazeologik birliklar bilan almashtirish maqsadga muvofiq bo’lardi.

Tojikcha matnda frazeologik birlik kuchli obrazlilik va ma’no yukiga ega. Inglizcha tarjimada bu obrazlilik saqlanib qolgan, lekin o’zbekcha tarjimada obrazlar yuqolgan va oddiy qo’rquv hissi bilan cheklangan.

Ingliz tarjimasi asliyatni saqlab qolishga intilgan, shu sababli frazeologik birlikni soʻzma-soʻz oʻgʻirgan. Oʻzbek tarjimasi esa asosan mazmunni koʻrsatishga eʼtibor qaratgan va frazeologik birlikdan voz kechgan.

4. Бачагон бо шунидани садои кӯбиши дар **мисли мушбачагоне, ки аз садои фишир-фишири гурба гурезанд**, шитобкорона ба ҷойҳои худ гузашта дар даруни охурчаҳои худ паси синҷ пинҳон гардидани шуданд (Мактаби кӯҳна, с. 13).

Bolalar eshik taqillashini eshitishlari bilan, **mushuk tovushini eshitib qochgan sichqon bolalaridek**, qoʻrqib qochib oʻz oxurlariga kirib yashirindilar (Eski maktab, b. 10).

Having heard the knock, **like mice from a cat**, the guys flung into their seats and tried to hide behind the logs (The Old School, 14).

Yuqoridagi misollarda ham frazeologik birliklar ishlatilgan, ular barchasida bir xil obraz – “mushukdan qoʻrqib qochayotgan sichqonlar” tasvirlangan.

Tojik tilidagi **“мисли мушбачагоне, ки аз садои фишир-фишири гурба гурезанд”** iborasi **qoʻrquv va tezkor qochish** maʼnosini ifodalaydi. **“Шитобкорона”** va **“пинҳон гардидани”** soʻzlari oʻrta darajadagi qoʻrquvni va tezkor harakatni koʻrsatadi. Bu ibora bolalarning oʻzgargan holatini va tashvishlarini aks ettiradi.

Oʻzbekcha tarjimadagi **“mushuk tovushini eshitib qochgan sichqon bolalaridek”** iborasi semantik jihatdan toʻliq asliyatdagi maʼnoni ifodalaydi. Oʻzbekcha tarjimada obraz aniq va kuchli ifodalangan. **“Qoʻrqib qochib”** iborasi bolalar va sichqonlarning qoʻrquvini aks ettiradi. Shu bilan birga, **“eshik taqillashini eshitishlari bilan”** kabi maʼno izohlar qoʻshilishi matnni yanada aniqroq va yorqinroq boʻlishiga xizmat qiladi.

Ingliz tilidagi tarjimada bu ibora **“like mice from a cat”** deb berilgan boʻlib, bu ancha tabiiy eshitiladi, chunki ingliz tilida ham sichqon va mushuk oʻrtasidagi tabiiy qoʻrquv tushunarli metafora sifatida ishlatiladi. **“The guys flung into their seats”** va **“tried to hide behind the logs”** qismlari bolalar oʻzini qanday saqlab qolganini, qoʻrquv va xavotirni aks ettiradi. Inglizcha tarjima aniq va obrazli boʻlishiga qaramay, baʼzi madaniy tafovutlar mavjud.

Tojik, oʻzbek va ingliz madaniyatlarida **“mushuk”** va **“sichqon”** obrazlari umumiy boʻlib, qoʻrquvni tasvirlashda keng qoʻllaniladi. **“Мушбачагоне”** iborasi bu madaniyatlarda bolaning qoʻrquvini, his-tuygʻularini aks ettirgan holda ishlatiladi. Bu yerda mushuk va sichqon oʻrtasidagi doimiy qarama-qarshilik obrazli tarzda tasvirlangan.

Ingliz tilidagi **“like mice from a cat”** iborasi ingliz oʻquvchisiga maʼlum boʻlsa-da, uning tasviridagi qoʻrquvning intensivligi tojik yoki oʻzbek madaniyati bilan taqqoslaganda yumshoqroq boʻlishi mumkin. Ingliz tilida **“as scared as a mouse in front of a cat”** yoki **“they scattered like frightened mice”** kabi frazeologik birliklar orqali ham ifodalanishi mumkin.

Har uchala tilda frazeologik birlik oʻzining maʼnosini saqlagan va tasvirning kuchli obrazini aks ettirgan. Tojikcha, oʻzbekcha va inglizcha matnlar semantik jihatdan bir-biriga yaqin.

Inglizcha tarjima soʻzma-soʻz yondoshuvni qoʻllagan, lekin oʻzbek va tojikcha matnlarda frazeologik birliklar va madaniy tasvirlar aniqroq va kuchliroq ifodalangan.

5. Халифа бо бардошта шудани ҷӯби мактабдор мананди **саги бегонаи барои ангурдуздӣ ба боғе даромада ва ба боғбон вохӯрда**, фарёдкунон ба ҳар тараф мегурехт (Мактаби кӯҳна, с. 13).

Xalifa esa domlanning tayogʻi koʻtarilishi bilan **uzum oʻgʻirlash uchun boqqa kirib, bogʻbon tayogʻiga uchragan it kabi**, dod solib, talvasalanar, har tomonga qochar edi (Eski maktab, b. 10).

As soon as the stick was in the teacher's hands, the Caliph, **like a dog caught in a strange garden**, ran around the room screaming (The Old School, p. 14)

Asliyadagi **“Монанди саги бегонаи барои ангурдуздӣ ба боғе даромада”** iborasi to'liq frazeologik birlik sifatida ishlatilgan bo'lib, **"sag"** va **"bog"** obrazli tasvirlari yordamida Xalifaning qo'rquv va bezovtaligini aks ettiradi. **“Барои ангурдуздӣ”** iborasi esa, Xalifaning ushlanib qolishi va qo'rquvini juda kuchli tasvirlangan.

O'zbekcha tarjimadagi **“it kabi, dod solib, talvasalanar”** iboralari, tojikcha misolga juda yaqin bo'lib, asl ma'no mohiyatni ochib berish uchun xizmat qiladi. **"It kabi"** frazeologik birligi o'xshash ma'noga ega, **"Talvasalanar"** so'zi, ya'ni **"bezovtalik"** va **"qo'rquv"** tushunchalarini yanada kuchaytiradi va Xalifaning jon jahdi bilan qochayotgan holatini tasvirlaydi.

Inglizcha tarjimadagi **"like a dog caught in a strange garden"** iborasi semantik jihatdan juda yaxshi ifodalangan. **"strange garden"** (**begona bog'**) tasviri qo'rquv va tushunmovchilikni yoritadi, lekin u biroz yumshoqroq tasvirlangan. **"Screaming"** so'zi esa Xalifaning harakatlari va qichqirig'ini tasvirlaydi, ammo ingliz tilida **"dog caught"** iborasi o'zbek va tojikcha tilga qaraganda ancha soddaroq bo'lishi mumkin, lekin **“барои ангурдуздӣ”** (**uzum o'g'irlash uchun**) iborasi tarjimada berilmagan.

Tojik va o'zbek madaniyatlarida **"sag"** va **"bog"** obrazlari keng qo'llaniladi. **"Begona"** so'zi, ya'ni begona joyda bo'lgan hayvon tasvirida, odamning hayvon kabi qo'rquvini ifodalashda ishlatilgan bo'lib, odatdagidan tashqariga chiqqan va xatarni sezgan kishining kayfiyatini aks ettirishda keng qo'llaniladi.

Ingliz madaniyatida ham **"it"** va **"bog"** tasvirlari ishlatilgan, ammo **"strange garden"** iborasi o'zbek va tojik madaniyatiga qaraganda biroz farq qiladi. **"Dog caught"** tasviri ingliz tilida keng qo'llanilsa-da, ba'zida uning tasviri o'zbek va tojik tiliga qaraganda yumshoqroq bo'lishi mumkin. Bu esa ingliz tilidagi madaniy kontekstga mos keladi.

Har uchala tilda frazeologik birliklar tasvirni kuchli aks ettirgan, ammo ularning intensivligi va tasvirlashdagi detallarga farqlari mavjud. Tojikcha va o'zbekcha tarjimadagi frazeologik birliklar ko'proq dramatik va kuchli tasvirlangan, inglizcha tarjimada esa biroz yumshatilgan.

6. Ҳарчанд аз тарси чӯби мактабдор сари худро боло накунанд ҳам, ба ман нигоҳ карда ва **ангуштҳояшонро пеши чашмҳояшон оварда**, маро ба якдигар нишон медоданд (Мактаби кӯҳна, с. 10).

Bolalar ham menga qarar va domla tayog'idan qo'rqqanlari sababli boshlarini ko'tarmagan holda **barmoqlarini ko'z oldilariga keltirib** bir-birovlariga meni ko'rsatar edilar ... (Eski maktab, b. 7).

Without raising their heads, fearing the teacher's stick, they pointed at me with their **fingers pressed to their right eye** (Old school, p. 9).

"Аз тарси чӯби мактабдор сари худро боло накунанд" frazeologik birligi to'liq qo'rquv va uyatchanlikni tasvirlaydi. Bu yerda bolalar o'qituvchi tayoqidan qo'rqib, boshlarini ko'tarishdan ham qo'rqishadi. Bu ibora, bolalarning ichki his-tuyg'ularini juda a'lo darajada ifodalangan. **"Ангуштҳояшонро пеши чашмҳояшон оварда"** iborasi, ularning qo'rqish darajasini yanada kuchaytiradi, ya'ni ular nafaqat o'zlarini himoya qilishga intilishadi, balki bir-birlariga ko'rsatish uchun qo'llarini ishlatadilar.

O'zbekcha tarjimada ham **"qo'rqqanlari sababli boshlarini ko'tarmagan holda"** iborasi aynan tojikcha misoldagi ma'noni o'zida aks ettiradi. **"Barmoqlarini ko'z oldilariga keltirib"** frazeologik birligi, bolalar o'zlarini himoya qilish uchun barmoqlarini

ko'zlariga olib kelganlarini ta'riflaydi. Bu, ularning qo'rquvini ifodalovchi noan'anaviy harakatni ko'rsatadi.

Inglizcha tarjimadagi **"without raising their heads, fearing the teacher's stick"** iborasi qo'rqish va past bo'lish holatini aniq tasvirlaydi, lekin **"fingers pressed to their right eye"** tasviri **"barmoqlarini ko'z oldilariga keltirib"** iborasidan biroz farq qiladi. Inglizcha versiyada **"right eye"** qo'shimchasi berilgan, bu esa tarjimaga aniqroq kontekst qo'shadi, ammo asli matndagi **"chashmhoyashon"** so'zi ancha umumiyroq berilgan.

O'zbek va tojik madaniyatlarida **"qo'rqqanlari sababli boshlarini ko'tarmagan holda"** va **"barmoqlarini ko'z oldilariga keltirib"** tasvirlari bolalarning o'qituvchi tomonidan qo'rquvini juda aniq ko'rsatadi. Bu kabi holatlar odatda maktabdagi yuqori ijtimoiy rollarni aks ettiradi va bola uchun ota-ona yoki o'qituvchi kabi shaxslar hurmatli va qo'rqadigan kishilar sifatida tasavvur qilinadi. Bizning madaniyatimizda o'qituvchi va maktabdagi hurmat yuqori baholanadi, bu frazeologik birliklar orqali yaxshi ko'rsatilgan.

Ingliz madaniyatida o'qituvchidan qo'rquv juda keng tarqalgan, lekin inglizcha versiyada **"teacher's stick"** iborasi nisbatan kamroq tarqalgan. Bu madaniyatda o'qituvchilar ko'pincha ota-ona kabi hurmat qilinadi, lekin **"right eye"** qo'shimchasi inglizcha madaniyatdagi bir oz aniqlikni kiritadi. Ingliz tilida bola o'qituvchidan qo'rqib, boshini ko'tarolmasligi, lekin boshqa tasvirlarni ishlatish, qo'rquvning o'ziga xos madaniy tafovutini ko'rsatadi.

Har uchala tilda frazeologik birliklar bolalarning qo'rquvini va ehtiyotkorligini tasvirlashda ishlatilgan. Boshlarini ko'tarish va qo'llarini ko'zlariga olib kelish orqali, har uchala til ham bolalarning ichki his-tuyg'ularini aks ettiradi. **"teacher's stick"** tasvirida esa, madaniyatlar o'rtasidagi farqni ko'rish mumkin, chunki o'qituvchidan qo'rqish madaniy jihatdan boshqacha aks ettirilgan.

XULOSA

Yuqoridagi nazariy va amaliy tahlillar shuni ko'rsatadiki, S. Ayniyning "Eski maktab" va "Sudxo'ring o'limi" asarlarida ishlatilgan **"qo'rquv"** konseptini ifodalovchi frazeologik birliklar soni ko'p va ularning barchasi turli lingvistik yondashuvlar orqali ifodalangan. Bu esa, **"qo'rquv"** konsepti ko'plab frazeologik birliklar tarkibida ishtirok etib ko'plab barqaror birliklar hosil qilishda muhim ahamiyat kasb etadi. Yozuvchi o'z qahramonlarining jismoniy holatini, his-tuyg'ularini, ularning ichki dunyosini tasvirlashda **"qo'rquv"** konseptidan juda mohirona foydalangan.

Ikkinchidan esa, har qanday tilning frazeologiyasida shu tilda so'zlovchilarning o'ziga xos til xususiyatlari mujassam bo'ladi. Shuning uchun tillarning frazeologik zaxirasini taqqoslash, xalqlarning tili, dini, urf-odatlar, an'analari, turmush tarzi va milliy-madaniy tushunchalarini ochib berishga imkon beradi. Shuni ta'kidlash kerakki, frazeologik birliklar tarkibida **"qo'rquv"** hodisasini og'zaki nutqda ifodalash turlicha va o'ziga xos xususiyatlar bilan farqlanadi. Shunday qilib, tarjima jarayonida frazeologizmlarning gapda vazifasini hisobga olish juda muhim hisoblanadi hamda mos ekvivalentlarini izohli lug'atlardan topish maqsadga muvofiq bo'lardi. Bu o'rinda har doim kontekstning ahamiyatini ham yodda tutish lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Айнӣ Садриддин. Марги судхӯр. – Қисса – Душанбе, 2010, «Адиб», 220 саҳ.
2. Ayniy Sadriddin. Sudxo'ring o'limi.- Qissa. – Toshkent. «Yoshlar nashriyot uyi», 2018. – 152 bet.

3. Айни Садриддин. Смерть ростовщика: (Повесть и очерк: Пер. с тадж.) – Душанбе: Адиб, 1987. – 224 с.
4. Ayni Sadridin. The Death of the Usurer. – Story. – Dushanbe, 2024, “R-graph”, 296 p.
5. Айни С. Мактаби кӯҳна. – Повест. Душанбе, 2010, ТЧБ «Истиқбол», 56 с.
6. Айний С. Эски мактаб. Повесть. – Т.: «Ёш гвардия», 1982. – 48 б.
7. Ayni S. Old school. Story. Translated and edited by John Smith. November 19, 2020, 58 p.
8. Фозилов М. Фарҳанги ибораҳои рехтаи забони ҳозираи тоҷик (фарҳанги фразеологӣ). Чилди якум. Нашриёти давлатии Тоҷикистон, Душанбе, 1963 – 971 с.
9. Фозилов М. Фарҳанги ибораҳои рехтаи забони ҳозираи тоҷик (фарҳанги фразеологӣ). Чилди дуюм. Нашриёти «ИРФОН», Душанбе, 1964 – 807 с.
10. I.G'afurov, O.Mo'minov, N.Qambarov, “Tarjima nazariyasi”, o'quv qo'llanma, T. 2012. 157 b.
11. Ibayev A.J. Komparativ sintaktik qurilmalar tilshunoslikning o'rganish obyekti sifatida// “So'z san'ati” xalqaro jurnali. –Toshkent, 2021. –№1. –B. 97-102. (10.00.00.№31)
12. Jamshed, M. (2023). COMMUNICATIVE ASPECT OF TEACHING ENGLISH AS A SPECIALTY. *THE ROLE OF SCIENCE AND INNOVATION IN THE MODERN WORLD*, 2(4), 123-129.
13. Маҷидов Х. Фразеологияи забони ҳозираи тоҷик, (Дастури таълимӣ), Душанбе, 1982, 107 с.
14. MIRZOYEV, J. HOFIZ SHEROZIY G'AZALIDAGI NOZIK JIHATLARINING TARJIMADA BERILISHI.(FORS-INGLIZ TILLARI MISOLIDA). *УЧЕНЫЙ XXI ВЕКА Учредители: Общество с ограниченной ответственностью Коллоквиум*, 83-85.
15. Norkulovich, M. J. (2023). SADRIDDIN AYNIYNING “ESKI MAKTAB” POVESTIDAGI FRAZEOLOGIK BIRLIKLAR TARJIMASINING QIYOSIY TAHLILI (TOJIK, O'ZBEK VA INGLIZ TILLARI MISOLIDA). *TA'LIM VA RIVOJLANISH TAHLILI ONLAYN ILMIY JURNALI*, 3(7), 37-41.
16. Мирзоев, Ж. (2024). “Ko'z” komponentli frazeologik birliklarning tasnifi va ularning semantik xususiyatlari (S. Ayniyning “Eski maktab” povesti misolida). *Зарубежная лингвистика и лингводидактика*, 2(1), 6-12.
17. Mirzoyev, J. N. (2024). “Sudxo'rning O'limi” Asarida Qo'llanilgan Somatik Frazeologizmlar Tarjimasining Tahlili. *Miasto Przyszłości*, 45, 401-405.
18. Раҳматуллаев Ш. Ўзбек тилининг изоҳли фразеологик луғати. – Тошкент, “Ўқитувчи” нашриёти, 1978, – 407 б.
19. Ғ. Саломов. Таржима назарияси асослари. Ўқув қўлланма. – Т.: “Ўқитувчи” нашриёти, 1983, – 232 б.
20. Шодиев С. Парафразалар ва уларнинг деривацион хусусиятлари // Ўзбекистон хорижий тиллар(электрон илмий-методик журнал). – Тошкент, 2017. - №2,16. –Б.246-250. (10.00.00. №17)
21. Shodiyev S. Set phrase as a Syntactic Phenomenon // *International Journal of Science and Reseach(IJSR)*. Volume 8 Issue 10, October, 2019.–P. 867-869 (№23. SJIF: 7.426)
22. Asror, Y. (2023). LINGVOKULTUROLOGIK VA FRAZEOLOGIK BIRLIKLAR TARJIMASIDA LEKSIKOGRAFIYANING QO 'LLANISH O 'RNI VA AHAMIYATI. *IQRO JURNALI*, 1(2), 311-316.